

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH VA
BOSHCARISH FANINING

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta‘lim sohasi:	410000	Biznes va boshqaruv
Mutaxassislik:	70410108	Mintaqaviy iqtisodiyot

Toshkent-2025

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar instituti direktori:



T. Arifjonov

“Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrası mudiri:



M.X. Voxidova

ARM boshlig'i:



M.M. Yuldasheva

Fan/modul kodi XIJE1306	O'quv yili 2026-2027	Semestr 3	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim turi O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va boshqarish	72	108	180
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi: mamlakat iqtisodiyoti uchun kerakli bo'lgan xorijiy sarmoyalarni jalb etish strategiyalarini o'rganish, mahalliy korxonalar va kompaniyalarga xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or tajribalarni mamlakatga kiritish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish yo'nalishlarini tahlil va tadqiq etish.</p> <p>Fanning vazifasi: investitsiya muhiti va infratuzilmani yaxshilash bo'yicha tahlillar o'tkazish, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, soliqlarni kamaytirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, mahalliy korxonalar va xorijiy investorlar o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganish, mamlakat iqtisodiyotiga zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni xorijdan jalb qilish yo'nalishlarini tahlil qilish, xorijiy banklar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish va kredit liniyalarini ochish shart-sharoitlarini o'rganish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Waseda University (181 QS) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://waseda.elsevierpure.com/en/publications/foreign-direct-investment-and-wage-inequality-is-skill-upgrading-</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va zaruriyati</p> <p>Bu mavzu xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, ularning iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi va zaruriyatini</p>			

yoritadi. Investitsiyalarning milliy iqtisodiyot uchun muhimligi va ularni jalb etish sabablarini tahlil qiladi.

2-mavzu. Investitsiya muhiti va infratuzilmasi

Bu mavzuda mamlakatning investitsiya muhiti, infratuzilma va ularni takomillashtirish bo'yicha strategiyalar haqida ma'lumot beriladi. Investitsiya muhiti va infratuzilmaning ahamiyati va ta'sir omillari ko'rib chiqiladi.

3-mavzu. Xorijiy Investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari, ularni amalga oshirish usullari va yondashuvlari, davlat tomonidan qo'llaniladigan rag'batlantiruvchi choralar tahlil qilinadi.

4-mavzu. Xorijiy Investitsiyalarning turlari va ularning xususiyatlari

Bu mavzuda xorijiy investitsiyalarning turli shakllari, ular orasidagi farqlar, afzallik va kamchiliklar haqida ma'lumot beriladi. Tashqi investitsiyalarni moliyaviy va nodavlat turlari ko'rib chiqiladi.

5-mavzu. Investitsiya loyihalarini rejalashtirish va boshqarish

Investitsiya loyihalarini rejalashtirish va boshqarish bosqichlari, ularning samaradorligini oshirish usullari va loyihalarni amalga oshirishdagi muammolar haqida tahlil qilinadi.

6-mavzu. Investitsiyaviy tavakkalchilik va uning tahlili

Investitsiyaviy tavakkalchilik tushunchasi, uning tahlil usullari va boshqarish strategiyalari haqida ma'lumot beriladi. Tavakkalchilikni kamaytirish usullari ko'rib chiqiladi.

7-mavzu. Investitsiyaviy qarorlarni qabul qilish jarayoni

Investitsiyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonlari, ularning bosqichlari, qaror qabul qilishda qo'llaniladigan vositalar va metodlar yoritiladi.

8-mavzu. Xorijiy investorlarga qulay sharoitlar yaratish

Xorijiy investorlar uchun mamlakatda qulay sharoitlar yaratish usullari, soliqlarni kamaytirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish kabi chora-tadbirlar haqida ma'lumot beriladi.

9-mavzu. Investitsiyalar bilan bog'liq qonunchilik bazasini takomillashtirish

Investitsiyalar bilan bog'liq milliy qonunchilik, uning xalqaro me'yorlarga mosligi va uni takomillashtirish usullari tahlil qilinadi.

10-mavzu. Xorijiy investitsiyalar va texnologik innovatsiyalar

Xorijiy investitsiyalar orqali mamlakatga kiritilgan texnologik

innovatsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri yoritiladi.

11-mavzu. Xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri

Xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, ularning yangi ish o'rinlari yaratishda, aholini daromadlarini oshirishda va iqtisodiy o'sishda o'zni haqida ma'lumot beriladi.

12-mavzu. Mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish

Mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish usullari, mintaqaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash strategiyalari va ularning natijalari tahlil qilinadi.

13-mavzu. Xalqaro hamkorlik va investitsiyalar

Xalqaro hamkorlikning investitsiyalarni jalb qilishdagi o'zni, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish usullari haqida ma'lumot beriladi.

14-mavzu. Xorijiy investitsiyalar monitoringi va ularni baholash

Xorijiy investitsiyalarni monitoring qilish va baholash usullari, loyihalarning amalga oshirilishini kuzatish va natijalarni tahlil qilish haqida ma'lumot beriladi.

15-mavzu. Xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari

Xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq mavjud muammolar va ularning yechimlari, investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar haqida tahlil qilinadi.

16-mavzu. Xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari

Ushbu mavzu xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularning amalda tatbiq etilishi jarayonida yuzaga keladigan muammolarni kompleks tahlil qiladi. Xususan, qonunchilikdagi barqarorlikning yetishmasligi, korrupsiya, byurokratik to'siqlar, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kadrlar salohiyatining pastligi kabi omillar xorijiy sarmoyadorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavzuda ushbu muammolarning asosiy sabablari aniqlanadi va ularni hal etish bo'yicha taklif etilgan institutsional, iqtisodiy va huquqiy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Xalqaro tajribaga asoslangan yechimlar, xususan, investorlar uchun kafolatlar, soliq imtiyozlari, investitsiya sohasidagi yagona darcha tamoyili va xalqaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi.

17-mavzu. Barqaror investitsiyalar va yashil iqtisodiyot

Mazkur mavzu ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlanishni ta'minlashda investitsiyalarning yangi yo'nalishi — yashil investitsiyalar — haqida bo'ladi. Barqaror investitsiyalar energiya tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik toza infratuzilma va "yashil" ishlab chiqarish loyihalariga qaratiladi. Mavzuda yashil iqtisodiyot

tushunchasi, uning moliyalashtirish mexanizmlari, xalqaro standartlar (masalan, ESG — Environmental, Social, Governance), “yashil obligatsiyalar” va ularning amaliy qo‘llanilishi, shuningdek, rivojlanayotgan davlatlar, xususan O‘zbekiston misolida yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish strategiyalari tahlil qilinadi.

18-mavzu. Investitsiya nizolarini hal etish mexanizmlari

Xalqaro investitsiya faoliyatida investorlarga va qabul qiluvchi davlatga oid manfaatlar to‘qnashuvi natijasida investitsiya nizolari yuzaga keladi. Ushbu mavzu ushbu nizolarni hal qilishda qo‘llaniladigan huquqiy va institutsional mexanizmlarni o‘rganishga qaratilgan. Mavzuda xalqaro arbitraj (masalan, ICSID — Xalqaro investitsion nizolarni hal etish markazi), davlatlararo kelishuvlar, hamda investitsiya bitimlarida ko‘zda tutilgan nizolarni hal qilish shartlari chuqur yoritiladi. Shuningdek, mediatsiya va muzokaralar, davlatlar va investorlar o‘rtasida tuziladigan maxsus arbitraj shartnomalari, ularning samaradorligi va xalqaro amaliyotdagi misollar asosida tahlil qilinadi.

III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar “Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va boshqarish” fanidan ma’ruza darstarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va boshqarish” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va zaruriyati
2. Investitsiya muhiti va infratuzilmasi
3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari
4. Xorijiy investitsiyalarning turlari va ularning xususiyatlari
5. Investitsiya loyihalarini rejalashtirish va boshqarish
6. Investitsiyaviy tavakkalchilik va uning tahlili
7. Investitsiyaviy qarorlarni qabul qilish jarayoni
8. Xorijiy investorlarga qulay sharoitlar yaratish
9. Investitsiyalar bilan bog‘liq qonunchilik bazasini takomillashtirish
10. Xorijiy investitsiyalar va texnologik innovatsiyalar
11. Xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri
12. Mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilish
13. Xalqaro hamkorlik va investitsiyalar
14. Xorijiy investitsiyalar monitoringi va ularni baholash
15. Xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlari
16. Xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlari (institutsional, iqtisodiy va huquqiy yondashuvlar)

- 17.Barqaror investitsiyalar va yashil iqtisodiyot
- 18.Investitsiya nizolarini hal etish mexanizmlari

IV. Mustaqil ta'lim*

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

“Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va boshqarish” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy usullari va ularning samaradorligi.
2. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari.
3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning roli va strategiyalari.
4. Xorijiy investitsiyalar va milliy iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi.
5. Xorijiy investitsiyalarning mamlakatdagi tarmoqlar rivojlanishiga ta'siri.
6. Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari va ularning samaradorligi.
7. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda risklarni boshqarish usullari.
8. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliq va moliyaviy imtiyozlarning roli.
9. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda korporativ boshqaruvning ahamiyati.
10. Xorijiy investitsiyalarning mahalliy biznes muhitiga ta'siri.
11. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro tajriba va uni qo'llash imkoniyatlari.
12. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishda strategik rejalashtirishning ahamiyati.
13. Xorijiy investitsiyalarning barqaror rivojlanishiga ta'siri.
14. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy zonalarning roli va ahamiyati.
15. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yuridik asoslar va qonunchilik tizimi.
16. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishda axborot texnologiyalari va innovatsiyalarning roli.
17. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda inson resurslarini boshqarishning o'rnini.

	<p>18. Xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatlari. 19. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishda marketing strategiyalari. 20. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat-xususiy sheriklikning o'rni va imkoniyatlari.</p> <p>Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavzularini o'rganib chiqish; • tarqatma material asosida alohida ma'ruza mavzularini o'zlashtirish; • maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash; • o'quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish; • turli mavzularga doir adabiyotni o'qish (uy o'qishi /domashneye chteniye); • ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarni bajarish; • taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash; • mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash; • ilmiy ma'ruza tayyorlash va taqdimot qilish. <p>* Izoh: Mustaqil ta'lim va kurs ishi mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>“Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va boshqarish” fanini muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng, talabalar quyidagi ta'lim natijalari va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishlari kutiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalar xorijiy investitsiyalar tushunchasi, ularning turlari va xususiyatlarini <i>bilishi kerak</i>; • Talabalar investitsion loyihalarni monitoring qilish va baholash bo'yicha usullar va texnikalari; • Talabalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish <i>ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak</i>; • Talabalar xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini tahlil qilish va natijalarni baholash, boshqarish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar;

	<ul style="list-style-type: none"> • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Moosa, Imad. Foreign Direct Investment Theory, Evidence and Practice. 10.1057/9781403907493. 2002. 2. M. Sornarajah. The international law on foreign investment. Cambridge University Press. 2017. P.300 3. D.Yu. Xujamkulov, D.A. Ismailov. Investitsiya loyihalarni boshqarish. T.:2019. 295 b. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024. 5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023 6. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023. 7. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri. uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. 8. J.Kontolla,T.Barath. Advances in human factors, business management, training and education. Swirtsland.2017.-115p. <p>Scopusdan maqolalar</p> <ol style="list-style-type: none"> 9. Sharma, S., Wang, M., & Wong, M. (2014). fdi location and the relevance of spatial linkages: evidence from provincial and industry fdi in china. Review of International Economics, 22(1), 86-104. https://doi.org/10.1111/roie.12098 10. Crescenzi, R. (2023). From local to global, and return: geographical indications and fdi in europe. Papers of the Regional Science Association. 102(5). 985-1007. https://doi.org/10.1111/pirs.12758 11. Shepotylo, O. (2012). Spatial complementarity of fdi: the example of transition countries. Post-Communist Economies, 24(3), 327-349. https://doi.org/10.1080/14631377.2012.705468 <p>Axborot manbalari</p>

	<p>12. www.ziyonet.uz</p> <p>13. www.edu.uz</p> <p>14. www.economicus.ru</p> <p>15. www.canvanazer.com</p>
7.	<p>O'quv dasturi "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 - yil "12" 06 dagi "20" – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 - yil "28" 06 dagi "11" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul: M.X.Voxidova – TDSHU, "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrasida mudiri, PhD. dotsent</p>
9	<p>Taqrizchilar: N.T.Azizova– "Turizm" kafedrasida dotsenti, i.f.n. S.E.Mamurov–Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Menejment" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.</p>

MS